

ETNOOYKONIMLARNING YASALISHI XUSUSIDA

Safarova Maftuna Zoir qizi

BuxDU o'qituvchisi f.f.f.d (PhD)

Abduraximova Madinabonu Sheramat qizi

*BuxDU 2-bosqich talabasi*MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received: 28.11.2025**Revised: 29.11.2025**Accepted: 30.11.2025*

KALIT SO'ZLAR:

*lingvistika,
onomastika, toponimika,
toponim, etnonim,
oykonim, yasaliş,
traspozitsiya,
kompozitsiya,
derivatsiya*

etnonim asosida shakllangan joy nomlari ham toponimimiyaning alohida bir tarmog'i sifatida bugungacha o'rganilib kelinmoqda. Chunki bu kabi joy nomlarida aholining turmush tarzi, an'analari, tarixi va lingvistik xususiyatlari saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Shuning uchun ushbu maqolada etnonim asosli joy nomlarining yasaliş masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada etnonim asosida shakllangan aholi yashash joy nomlarining yasaliş tamoyillari, ularning tarkibiy tuzilishi hamda Buxoro viloyati hududida uchraydigan ba'zi joy nomlari tahlilga tortilgan.

Tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan toponimika — joy nomlarini o'rganadigan fan sifatida xalqning tarixiy, madaniy va etnik taraqqiyotini tahlil qilishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Toponimikaning alohida tarmog'i sifatida shakllangan etnooykonimiya esa etnik guruhlarining tarixiy izlarini, ularning yashagan hududlarini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini aniqlash vazifasini bajaradi. Ushbu yo'nalishning markaziy tushunchasi — etnooykonim bo'lib, u etnik nom (etnonim) asosida yuzaga kelgan geografik nomni bildiradi.

Etnooykonimlarni o'rganish orqali xalqning tarixiy shakllanish jarayonlari, migratsiya yo'nalishlari, madaniy aloqalari hamda milliy o'zlikni saqlab qolish omillari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

O'zbekiston etnotoponimiyasida urug'chilik tizimining izlari uchraydi. Ko'plab hududlarda ma'lum bir urug' yoki uning kichik tarmoqlari istiqomat qilgan qishloqlar aynan shu urug' yoki shox nomi bilan atalgan. Tarixiy manbalarda o'zbeklar 92 ta asosiy urug'ga bo'linishi qayd etiladi. Har bir yirik urug' esa o'z navbatida yanada mayda bo'linmalarga ega bo'lgan. Etnograf K. Shoniyozevning yozishicha, birgina qo'ng'iroq urug'i 200 dan ziyod kichik shox va to'plarga ajraladi. Demak, o'zbek millati turli qabila va urug'larning birlashuvi natijasida shakllangan murakkab etnik tuzilmaga ega. Kattami-kichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi degan ma'lumotlarni S.Qorayev "Toponimika" asarida keltiradi. Shu bois, etnooykonimlarning ma'nosi va ularning qanday yasalganini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki etnografiya va shu kabi boshqa fanlar uchun ham qadimiy etnik jarayonlarni anglashda nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Etnooykonimlar odatda etnonim (xalq, millat, elat, qabila, urug' nomi) asosida yasaladi. Bu jarayonda etnonim (masalan: o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, arab, rus va boshqalar) toponimik ma'no kasb etuvchi so'z yasovchi qo'shimchalar yoki so'z birikmalari bilan birikadi.

Etnonimlarning joy nomiga aylanishi ikki xil shaklda namoyon bo'ladi. Birinchisida, etnonim bevosita joy nomi sifatida ishlatiladi, ikkinchisida esa u boshqa so'zlar bilan qo'shilib yangi joy nomini hosil qiladi.

B.Kilichev Onomastika darsligida shunday ma'lumot keltiradi. Tarkibida etnonim mavjud bo'lgan oykonimlar tuzilish jihatidan quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Bevosita transpozitsiya orqali etnooykonimga aylangan asl nomlar.
2. Etnonim va aniqlovchi leksema birikmasidan tuzilgan nomlar.
3. Etnonimga qo'shimcha qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan nomlar.

Bu turdagi yasaliş orqali paydo bo'lgan etnooykonimlarning barcha turini Buxoro viloyatida uchratish mumkin. Buxoro viloyatidagi etnooykonimlar tarixiy jihatdan ko'p millatli aholi yashagani bilan bog'liq. Asosan, etnonim + toponimik qo'shimcha modeli asosida yasalgan yoki aniqlovchi leksema orqali xalq nomi bilan bog'langan joyni bildiradi. Bu toponimlar viloyatning etnik, madaniy va tarixiy qatlamini aks ettiradi.

Transpozitsiya — bu usulda etnonim bevosita toponim sifatida ishlatiladi, ya'ni hech qanday qo'shimcha yoki so'z birikmasi ishtirok etmaydi. Bunda etnonimning o'zi joy nomiga aylanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu toponimlarning barchasi ma'lum urug' yoki elat nomi bilan bevosita bog'liq.

Etnooykonimlar qadimda yurtimiz hududida yashab o'tgan turli qabila, elat va millatlar nomlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ular xalqning etnik tarkibi hamda tarixiy shakllanish jarayonlarini aks ettiradi. Har bir etnonimning o'ziga xos o'rni va ma'nosi mavjud. Misol uchun:

Bahrin – turklashgan mo'g'ul qabilalaridan biri bo'lib, mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqqa ko'chib kelgan. XVIII–XIX asrlarda ularning bir qismi Toshkent va Farg'ona vohalarida o'troqlashgan, yana bir qismi esa Zarafshon vohasiga joylashgan. (Romitan t. Mirishkor MFY).

Yobu — o'z nomini yobu (jobu) qavmidan olgan etnotoponim bo'lib, bu qabila qadimda Zarafshonning o'rta va quyi oqimi hamda Qashqadaryo vohasida yashagan. Ayrim manbalarda "yobu" so'zi "yobg'u" unvonining qisqarma shakli sifatida talqin qilinib, turkiy qabila boshlig'ining unvonidan kelib chiqqan toponim deb qaraladi. Fors-tojik tilida esa yobu yuk tashuvchi ot ma'nosini bildiradi. (Jondor t. Namgoni MFY).

Qipchoq — qipchoq qabilasiga mansub aholining yashash hududini anglatuvchi etnotoponim. Qipchoqlar turkiy elatlarning yirik bo'g'ini bo'lib, Farg'ona, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm vohalarida keng tarqalgan. Abulg'ozixon "Shajarayi tarokima"da "qipchoq" nomi haqida shunday rivoyat keltiradi: O'g'uzxonning beklaridan biri yurish paytida halok bo'ladi, homilador ayoli esa sovuqda qurigan daraxt kovagida bola tug'adi. O'g'uzxon ushbu yetim go'dakni o'ziga o'g'il qilib, unga "qipchoq" — "kovak daraxt ichida tug'ilgan" degan ma'nodagi ism beradi. Shu boladan qipchoq avlodi tarqalgan. (Jondor t. Xumin MFY)

Kompozitsiya — bu etnonimning boshqa leksema bilan birikishi natijasida yangi joy nomining yuzaga kelish jarayonidir. Bunda etnik nom aniqlovchi yoki toponimik ma'no kasb etuvchi so'z bilan qo'shilib, murakkab tuzilishga ega bo'lgan oykonimni hosil qiladi. Masalan, Arabxona, Qo'ng'irotobod, Qipchoqqorovul, Katta Do'rman, Yuqori Arabxona kabi nomlarda etnik komponent (arab, qo'ng'irot, qipchoq) aniqlovchi so'z (-xona, -obod, -qorovul, katta, yuqori) bilan birikib, ma'lum etnik guruh yashagan joyni ifodalagan. Bu turdagi etnooykonimlar aholi tarkibi, tarixiy joylashuv va madaniy ta'sirlarni aks ettiruvchi murakkab toponimik birliklardir.

Kompozitsiya usuli orqali hosil bo'lgan etnooykonimlar:

Kattabayot — etnotoponim bo'lib, uning tarkibidagi “Bayot” qadimgi o'g'uz qabilalaridan birining nomi hisoblanadi. Bayotlar turkman lahjasida so'zlashuvchi aholi bo'lib, Buxoro vohasidagi Qorako'l va Olot tumanlarida ularning o'ziga xos shevasi uchraydi. IX–X asrlarda bayotlar Dashti Qipchoqda yirik o'g'uz qabilalaridan biri sifatida yetakchilik qilgan. XVI asr boshlariga kelib, shimoliy turkman qabilalarining bosimi tufayli bayotlarning katta qismi Amudaryoning o'rta oqimi bo'ylab va Buxoroning Qorako'l vohasiga ko'chib kelgan. (Olot t.Paxtakor MFY).

Qo'hna Nayman — etnotoponim bo'lib, nayman qabilasi nomidan kelib chiqqan. Mo'g'ulcha “nayma” — “sakkiz” degan ma'noni anglatadi. Bu atama mamlakatimizning turli hududlarida uchraydi. Naymanlar qabila sifatida o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, no'g'ay va oltoy xalqlarining tarkibida mavjud. XIX asrda o'zbek naymanlari uch asosiy urug'ga — qo'shtamg'ali, sadirbek va uvoxtamg'aliga bo'lingan, shuningdek, ular yana boshqa kichik bo'laklarga ham ajralgan. (G'ijduvon t. Sarmijon MFY).

Qo'ng'iro't eli — etnotoponim bo'lib, qo'ng'iro't urug'iga mansub aholi yashagan qishloqni bildiradi. Qo'ng'iro'tlar o'zbeklarning yirik qabilalaridan biri sanaladi. XIII asrda ular Chingizxon qo'shinlari tarkibida Movarounnahrda kelib joylashgan. XIV asrdan boshlab esa butun O'rta Osiyo bo'ylab keng tarqalgan. Ular asosan O'zbekistonning janubiy hududlari, Zarafshon hamda Xorazm vohalarida yashab kelganlar (G'ijduvon t. Qorabog' MFY).

Etnooykonimlar yasashida xilma-xillikni ko'rish mumkin. Arabxona, Arabdiyor - ot+ot. Katta Org'un, Katta Do'rman, Qoraqalpoq sifat+ot. Yuqori Arabxona, Yuqori Qo'ng'iro't ravish+ot kabi etnooykonimlarni ham uchratamiz.

Derivatsiya – etnonimga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida yangi joy nomining hosil bo'lish jarayonidir. Bu usulda etnik nom morfologik o'zgarishga uchrab, toponimik ma'no kasb etadi. Masalan, O'zbekon, Turkon, Xitoyon, Avg'onon, Arabon, Minglar, Mo'g'ulon, Turkmanlar kabi nomlarda -on, -lar, -cha kabi yasovchi qo'shimchalar etnonim asosiga qo'shib, “mazkur elat yoki qabila yashaydigan joy” ma'nosini bildiradi. Derivatsion model orqali hosil bo'lgan bunday etnooykonimlar xalq tilining tabiiy rivojlanish jarayonini, shuningdek, etnik birliklarning tarixiy izlarini aks ettiradi.

Derivatsiya usuli orqali hosil bo'lgan etnooykonimlar:

Shexoncha – asosiy etnonim: Shex qo‘shimcha: -oncha / -cha. Shex etnonimi + -cha “Shexlar bilan bog‘liq joy” yoki “Shexlar yashaydigan hudud” ma‘nosini bildiradi. (Buxoro t. Shexoncha QFY).

Chig‘ilbak – asosiy etnonim: Chig‘il (qabila yoki urug‘ nomi), qo‘shimcha: -bak. Chig‘il + -bak “Chig‘il qabilasi yashaydigan hudud” yoki “Chig‘il qabila a‘zolarining joyi” ma‘nosini beradi (Shofirkon t. Mazlaxon Chandir MFY).

Shexlar – asosiy etnonim: Shex qo‘shimcha: -lar (ko‘plik). Shex + -lar “Shexlar yashaydigan joy” ma‘nosini bildiradi, bu ham derivatsion yasallashning tipik misolidir (Qorako‘l t. Istiqlof MFY).

Etnooykonimlar xalqning etnik shakllanishi, migratsiya jarayonlari va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim toponimik qatlam sifatida til tizimida alohida o‘rin tutadi. Ular orqali turli etnik guruhlarining tarixiy izlari, ularning joylashuvi va o‘zaro munosabatlari haqida qimmatli ma‘lumotlar olish mumkin. Etnooykonimlar uch asosiy yasallash modeli – transpozitsiya, kompozitsiya va derivatsiya orqali shakllanadi va har bir model til taraqqiyotining o‘ziga xos mexanizmlarini namoyon etadi. Mazkur yasallash jarayonlari tarixiy, lingvistik va etnografik faktlarni o‘zida mujassam etgani bois, etnooykonimika xalqning o‘tmishini, etnik tarkibini va til taraqqiyotini o‘rganishda ishonchli ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘rayev H. Buxoro toponimikasi – Buxoro. 2021. –B. 81-114-120-132-150-196-210-243-253.
2. To‘rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro. 2020. 320 b.
3. Kilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro 2023. –B.88-89.
4. Qorayev S. Toponimika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2006. –B.76.